

Oriental Journal of Education



DEVELOPING THE PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE ENGLISH LANGUAGE TEACHERS: AN ANALYSIS OF SCHOOL-BASED PEDAGOGICAL PRACTICE

Tanzilla Artikova

Doctoral Candidate, 2nd Year

Namangan State Institute of Foreign Languages

Email: tanzila3188@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: pre-service English language teacher training, pedagogical practicum, reflective approach, professional competence, formative assessment, mentoring, SWOT.

Received: 26.08.25

Accepted: 28.08.25

Published: 01.08.25

Abstract: This article analyzes the current state of pedagogical practicum for pre-service English language teachers and its role in the development of professional competence. Based on the study of school practicum programs and survey data collected from 416 undergraduate students across four universities, it was revealed that there is a significant gap between theoretical knowledge and practical application. In particular, shortcomings were identified in the areas of reflective practice, formative assessment, and the use of digital technologies. The findings highlight the need to integrate innovative methods into the practicum process, to foster reflective thinking among pre-service teachers, and to improve the quality of mentoring. In the conclusion, the article provides key recommendations for enhancing pedagogical practicum on the basis of international best practices.

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH: MAKTAB- PEDAGOGIK AMALIYOTINING TAHLILI

Tanzilla Artikova

2-bosqich tayanch doktoranti

Namangan davlat chet tillar institute

tanzila3188@gmail.com

Namangan, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarni tayyorlash, pedagogik amaliyot,

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining pedagogik amaliyotining hozirgi holati va uning kasbiy

reflektiv yondashuv, kasbiy kompetensiya, formativ baholash, mentorlik, SWOT tahlil.

kompetensiyani rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Maktab pedagogik amaliyot dasturlarini o'rganish va to'rt universitetdan 416 nafar bakalavr talabalaridan olingan so'rovnoma ma'lumotlariga tayangan holda, nazariy bilim bilan amaliyot o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjudligi aniqlangan. Ayniqsa, reflektiv amaliyot, formativ baholash va raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalarida bir necha bo'shliqlar mavjud. Tadqiqot natijalariga ko'ra, amaliyot jarayoniga innovatsion metodlarni integratsiya qilish, bo'lajak o'qituvchilarning reflektiv fikrlashini rivojlantirish hamda mentorlik sifatini oshirish zarurligi ta'kidlab o'tiladi.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЦИФРОВЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ БИОЛОГИИ СТУДЕНТАМ

Танзилла Артикова

Аспирантка 2-го курса

Наманганский государственный институт иностранных языков

tanzila3188@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: подготовка будущих учителей английского языка, педагогическая практика, рефлексивное мышление, профессиональная компетентность, формативное оценивание, наставническая поддержка, SWOT.

Аннотация: В данной статье анализируется современное состояние педагогической практики будущих учителей английского языка и её роль в развитии профессиональной компетентности. На основе изучения школьных программ педагогической практики и данных опроса 416 студентов-бакалавров из четырёх университетов было выявлено наличие значительных разрывов между теоретическими знаниями и практической подготовкой. Особенно отчётливо они проявляются в сферах рефлексивной практики, формативного оценивания и применения цифровых технологий. Согласно результатам исследования, подчёркивается необходимость интеграции инновационных методов в процесс практики, развития рефлексивного мышления будущих учителей и повышения качества наставничества. В заключении статьи представлены основные рекомендации по совершенствованию педагогической практики на основе международного передового опыта.

Kirish. Global ta'lim islohotlari davrida o'qituvchilarni tayyorlash tizimlari chuqur o'zgarishlarni taqozo etmoqda. Xususan, yurtimizda ham oliy ta'limni modernizatsiya qilish

jarayoni bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga, ayniqsa, samarali pedagogik amaliyot orqali katta urg'u berilmoqda. Prezident farmonlari va 2020-yilgi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda nazariya bilan amaliyot integratsiyasi muhim deb belgilangan. Biroq, mavjud amaliyot modeli rasmiy jihatdan to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa-da, uning samaradorligini pasaytiruvchi muammolar mavjud.

Adabiyotlar tahlili. Xalqaro va mahalliy ilmiy manbalar tahlili pedagogik amaliyotning rivojlanishida uchta asosiy yo'nalishni ajratib ko'rsatadi: nazariya va amaliyot integratsiyasi, reflektiv yondashuv hamda mentorlik sifatini oshirish.

B.Urazimbetova talabalarining uzluksiz pedagogik amaliyoti samaradorligini oshirish masalasini tahlil qiladi. Muallif bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan strukturaviy va mazmuniy modelga asoslangan holda zamonaviy pedagogik universitet sharoitida amaliyotni tashkil etishga innovatsion yondashuvni taklif etadi. Tadqiqotda uzluksiz pedagogik amaliyotni 4+2 tizimida amalga oshirish talablari hamda uni samarali tashkil etish tamoyillari yoritiladi. Bo'lajak pedagoglarning rivojlanishini samarali boshqarish uchun pedagogik amaliyot davomida talabalar faoliyatining maxsus texnologik xaritalarini ishlab chiqadi[1].

M.Karimova, D.Soyipova bugungi globallashuv va raqamli texnologiya sharoitida ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy ko'nikmalar, kommunikativ yondashuvlar va madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini ham o'z ichiga oladi. Bu tayyorgarlikda maktab amaliyoti muhim didaktik vosita sifatida ajralib turadi. Amaliyot bo'lajak o'qituvchilarga nazariy bilimlarini real ta'lim muhitida sinab ko'rish, uning natijasida pedagogik faoliyatni chuqur anglash va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi [2].

J.J. Jalolovning fikricha, pedagogik ta'limda talabaning nazariy bilimlarini amaliy faoliyatga tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish uchun reflektiv yondashuv zarur. U o'zining "Pedagogik texnologiyalar" nomli monografiyasida shunday deydi: "Pedagog kadrlarni tayyorlashda mustaqil fikrlash, o'zini baholash va faoliyatini tahlil qilish kompetensiyasini shakllantirish zarur. Bu orqali talaba o'z ustida ishlashga o'rganadi" U ayniqsa, har bir darsdan so'ng "Refleksiya kunligi" yuritish, talabaning kasbiy yondashuvlarini shakllantirishda samarali vosita bo'lishini ta'kidlaydi.[3]

M. Filippova (2021) pedagogika talabalarining amaliyot jarayonini nazariy bilimlar bilan bog'liqlashtirishni ta'kidlaydi. Talabalar o'rgangan nazariy bilimlarni mashg'ulotlarda, dars rejalashtirishda, dars tahlilida hamda munosabat shakllantirishda amaliy jihatdan aynan qanday qo'llashni bilmaydilar[4]

Nazariya-amaliyot o'rtasidagi uzviylikning yetishmasligi talabalarining amaliyotda pedagogik kompetensiyalarni to'laqonli shakllantira olmasligiga sabab bo'lishi haqida K.Zeichner[5], F.Korthagen[6], Ya.Smirnova[7], Darling-Hammond[8], P.Grossman, K.Hammerness hamda

M.McDonald[9] o'z tadqiqotlarida ta'kidlab o'tgan. Ushbu tadqiqotlar ham nazariy bilimlarni amaliyotga integratsiyalash muhimligini asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot so'rovnoma asosida olib borildi. Namangan davlat chet tillari instituti, Farg'ona davlat universiteti, Andijon davlat chet tillari instituti va Qo'qon davlat pedagogika institutida tahsil olayotgan 416 nafar bakalavr talabalar o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma quyidagi yetti qismdan iborat bo'lib, ular:

1. Amaliyot haqidagi umumiy taassurotlar;
2. Ijtimoiy muhit;
3. Universitet mentorlari roli;
4. Maktab o'qituvchilarining ishtiroki;
5. Baholash usullari;
6. Qaror qabul qilish jarayoni;
7. Talabalarning takliflari

Olingan ma'lumotlar pedagogik amaliyot dasturlarni tahlil qilish va xalqaro hamda mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari bilan qiyoslanib o'rganildi

Tahlil va natijalar. Oliy ta'lim tizimida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun pedagogik amaliyot dasturlari ularning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq tahlillar amaldagi amaliyot modeli xalqaro standartlardan sezilarli darajada orqada qolayotganini ko'rsatmoqda. Avvalo, nazariya va amaliyot o'rtasida jiddiy tafovut mavjud. So'rovnoma natijalariga ko'ra, talabalarning 30 foizi nazariy bilimlarni amaliy dars jarayoniga qo'llashda qiyinchilikka duch kelmoqda. Bu esa o'quv dasturlarida nazariy kurslar bilan amaliy topshiriqlarni integratsiya qilishning yetarli emasligini ko'rsatadi.

Tajriba sinovidagi oliy ta'lim muassasalarining amaliyot dasturlarida asosan quyidagi metodik faoliyatlar ko'zda tutilgan: amaliyot obyektni o'rganish, kuzatish, metodist-o'qituvchi ko'rsatmalarini bajarish, o'quv va tarbiyaviy jarayonda ishtirok etish, mikrodarslar tashkil etish, kundalik yuritish. Bu faoliyatlar ta'lim jarayoniga dastlabki kirish darajasida foydali bo'lishi mumkin, biroq ular zamonaviy ta'limning talablari – interaktivlik, reflektiv fikrlash-yondashuv, o'z-o'zini tahlil qilish bilan mos kelmaydi. Shuningdek, CLT (Communicative Language Teaching), TBLT (Task-Based Language Teaching), flipped classroom, gamifikatsiya, STEAM yondashuvlari kabi ilg'or xorijiy til metodikasi tajribalari dasturga integratsiya qilinmagan.

Dasturda talabalar o'qituvchi faoliyatining tashkiliy jihatlari bilan tanishadilar, metodist rejasiga muvofiq darsga tayyorlanadilar, topshiriqlar bajaradilar. Biroq quyidagilar yetarli darajada qamrab olinmagan;

1.dars loyihalash bo'yicha mustaqil faoliyat: dars maqsadini kompetensiyaviy formatda ifodalash, darsning strukturasini va baholash vositalarini ishlab chiqish topshiriqlari yo'q.

2.o‘z-o‘zini baholash va refleksiya talaba tomonidan har bir darsdan so‘ng reflektiv yozuv tayyorlash, SWOT tahlil asosida o‘z ustidagi ishini rejalashtirish metodik jihatdan kuchli vosita bo‘lishiga qaramay, dasturda nazarda tutilmagan.

Xulosa. Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogik amaliyot dasturlari nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bo‘shliqni yopishda, reflektiv yondashuvni rivojlantirishda, mentorlik sifatini oshirishda hamda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishda hali ko‘p ishlashni talab qiladi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda pedagogik amaliyotning o‘rni beqiyosdir. Hozirgi holatga qarab aytish mumkinki, mavjud islohotlar ijobiy natijalar bermoqda, biroq bu jarayonni yanada tizimli, innovatsion va reflektiv yondashuvlar asosida olib borish lozim. Universitet va maktab o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, mentorlik tayyorgarligini kuchaytirish, shuningdek, zamonaviy raqamli texnologiyalarni pedagogik amaliyotga keng joriy qilish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Urazimbetova B (2022) Talablarning uzluksiz pedagogik amaliyotini tashkil etishning ayrim dolzarb masalalari <https://do.org/10.47689/STARS.unversty-pp173-182>
2. Karimova M., Soyipova D. (2024) Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari Jamiyat va innovatsiyalar – Society and Innovations (Issue 5, № 1 / 2024)
3. Jalolov, J.J. (2009). Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
4. Филиппова, Т.М. (2021). Практика студентов в педагогическом вузе: теория и методика. М.: Просвещение
5. Zeichner, K. (2010). Rethinking the Connections Between Campus Courses and Field Experiences in College- and University-Based Teacher Education. *Journal of Teacher Education*, 61(1-2), 89–99
6. Korthagen, F.A.J. (2010). How teacher education can make a difference. *Journal of Education for Teaching*, 36(4), 407–423. <https://doi.org/10.1080/02607476.2010.513854>
- 7.Ярская-Смирнова, Е.Р. (2017). Педагогическая практика как элемент профессионального развития. Высшее образование в России, №2, с. 109–114.
8. Darling-Hammond, L. (2006). *Powerful Teacher Education: Lessons from Exemplary Programs*. Jossey-Bass.
9. Grossman, P., Hammerness, K., & McDonald, M. (2009). Redefining teaching, re-imagining teacher education. *Teachers and Teaching: Theory and Practice*, 15(2), 273–289. <https://doi.org/10.1080/13540600902875340>.